

## INTELLEKT MUAMMOSI VA UNI RIVOJLANTIRISH

**Qodirova Malikaxon Kaxramonovna, katta o'qituvchi, JDPU**

**Annotasiya:** Maqolada aql, axloq, iste'dod va intellekt masalalari yoritib berilgan. Olimlarning intellekt borasida olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va bu boradagi tavsiyalari hamda intellektni rivojlantirishga oid maslahatlari berilgan.

**Kalit so'zlar:** aql, axloq, iste'dod, qobiliyat, intellekt testlari, aqliy taraqqiyot, aql-zakovat, mutafakkir olimlar, taraqqiyot, ong, mahsuldorlik, muloqot, oila, ota-ona.

Hozirgi kunda aqlan zukko, qobiliyatli, izlanuvchan, mustaqil fikrga ega o'g'il va qizlarga qarab xavasi keladi odamning. Aql, axloq, iste'dod va ma'naviyatga nisbatan e'tiborning kamayishi yuz bergan jamiyat hech qachon taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga, fan va texnika rivojiga tub ma'noda erisha olmaydi.

Aqliy jihatdan rivojlangan, yuksak qobiliyat va iste'dodli inson jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyotini xarakterga keltiruvchi kuch bo'lib, qadriyat, ma'naviyat, madaniyat, san'at hamda xalqning milliy imkoniyatlarini jahon standarti darajasiga olib chiqa oladigan qudratga egadir. Shu sababli, iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularga oqilona ko'rsatma berish, muayyan yo'nalishga yo'naltirish maqsadga muvofiq, chunki ularning har qaysisiga xos bo'lgan individual xususiyatlar, ichki kuch-quvvat, yashirin imkoniyatlarini ochish, takomillashtirish, taraqqiy ettirish, ta'sir o'tkazuvchi omilkor vositalar topish, ya'ni ularni jamiyat ehtiyoji, inson rivoji imkoniyatiga mos ravishda maqsadga muvofiq yo'naltirish xalqlarning azaliy orzu umidlari, istiqbol rejalari, hoxish irodalarining amalga oshish negizidir.

Bizga psixologiyadan ma'lumki insoniyat o'zining aql-zakovati, ongi, mahsuldor faoliyati, egilmas irodasi bilan hayvonot olamidan ajralib chiqqan. Ana shunday aql zakovat ustida ko'plab olimlar fikr yuritganlar, tadqiqotlar olib borganlar. Shunday ekan dastlab aqliy taraqqiyotga to'xtalib o'tsak.

Aqliy taraqqiyot insonning umumiy kamoloti bilan mutanosib ravishda o'zgaradi. Aqliy taraqqiyotni ro'yobga chiqradigan asosiy manbalar bilim egallash jarayoni, faoliyat, irodaviy hamda emosional jabha, individual xususiyat, shaxslararo munosabatlardan iboratdir. Aqliy taraqqiyot mikro bosqich jarayonida ro'yobga chiqa boradi.<sup>1</sup>

Inson intellektini tadqiq etish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu muammo qadimgi davrlardan beri mutafakkir olimlardan Al Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojiblarning asarlarida o'z aksini topgan.

Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida donolik yo'li bilimga erishish, turli soxadagi ma'lumotlarni o'rganishdir, ya'ni bilim egallash aqlni o'stiradi, aql o'z navbatida insonni kamolotga yetaklaydi degan fikrlar berilgan. Shu bilan birga aql ulug'lik manbai ekanligi hamda aql bilan idrokning o'zaro uyg'unligi to'g'risida to'xtalgan.

Intellektning mohiyatini talqin qilishda turlicha yondashilsada, umumiy maqsad bitta, u ham bo'lsa intellekt taraqqiyoti, uning xususiyatlari, o'ziga xosligini ochib berishdan iboratdir.

Intellektni tadqiq etishni birinchi bo'lib fransuz psixologi A.Bine jahon ilm maydoniga olib chiqdi. U o'z shogirdi T.Simon bilan intellektning rivojlanish darajasini o'lchash uchun psixologik testlar ishlab chiqdi. Ushbu testlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Intellekt muammosi bo'yicha rus psixologlaridan L.S.Vigodskiy, B.G.Ananyev, S.L. Rubinshteyn, B.M.Teplov, V.N.Myasishchev, N.S.Leytis, Ya.A.Ponamaryov, A.N.Leontyev, P.Ya.Gal'perin, L.V.Zankov, P.P.Blonskiy, V.A.Kruteskiy kabi bir qator olimlar qatorida hamyurtlarimiz M.G.Davletshin, E.G` .G`oziyev, V.A.Tokarevalarning izlanishlari ham alohida ahamiyat kasb yetadi.<sup>1</sup>

Ayniqsa E.G`oziyev tomonidan belgilab berilgan intellekt taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillar turkumi inson o'zining intellekti ustida ishlashiga zamin yaratadi.<sup>2</sup> Bular:

- bilim maskanlarida zamonaviy texnik vositalar va asboblarning mavjudligi;
- turli xil to'garak, seksiya, bilim uylari faoliyat ko'rsatishi va ularda qatnashish imkoniyatining borligi;
- oila muhitida yaratilgan moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar hamda shaxslarning ruhiy rag'batlanishi yo'lga qoyilganligi;
- shaxslar bilan o'zaro muloqot o'rnatishning uzluksizligi va oilada shaxslararo iliq psixologik muhitning hukm surishi;
- turli television viktorinalar, bahslar, tortishuvlar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo'yicha musobaqalar uyushtirilishi va ularda qatnashish, ishtirok yetish imkoniyati yaratilganligi;
- ortiqcha informasiya, xabarlar ko'lamini kamaytirish, masalan, videolar, avtomat o'yinlar;
- zararli odatlar bilan shug'ullanmaslik masalan, ichish, chekish, narkomaniya va boshqalar;
- bolalar va yoshlarni ro'zg'or ishlari bilan band qilib qo'yish, oila muhitida mehnatning shaxslararo oqilona taqsimlanmasligi va shaxsni qat'iy yumush bilan shug'ullanishga majbur etilganligi;
- hozirgi davrda ayrim kasblarning nufuzi kamayib ketayotganligi o'quvchi va talabalarning o'quv motivlariga kuchli ta'sir qilayotganligi;
- o'g'il va qizlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'ularining barqarorligi va ularning shakllanib ulgurmagani;
- kishilar o'rtasida borliqqa, jamiyatga, shaxslararo munosabatga, isrofgarchilikka, fidoiylikka nisbatan loqaydlikning mavjudligi va boshqalar.

Intellekt taraqqiyotini psixologlar quyidagilarga bog'liqligini aytib o'tganlar:

1. Intellektning yosh davriga bog'liqligi;
2. Intellekt jinsga va dunyoga kelish tartibiga aloqadorligi;
3. Intellekt etnos, elat, millatga taalluqliligi;
4. Intellekt oilaning ijtimoiy-iqtisodiy statusiga bog'liqligi;
5. Intellekt ota-onalarining ma'lumotliligiga bog'liqligi.

Bu fikrlarda jon bor. Intellekt faqatgina turmush tajribasining ortishi yoki yosh ulg'ayishi bilan taraqqiy yetmaydi albatta. Shu o'rinda intellekt taraqqiyotining yana bir sababchisi bo'lgan tushunish, tushunchalar shakllanishi, ya'ni voqyelik va predmetlar yuzasidan tushunchalarning shakllanishini ham muhim deb ayta olamiz.

Biz intellek rivojida tushunchalarning o'rnini aniqlash maqsadida bir qator tadqiqotlar olib bordik. Turli yoshdagi maktab o'quvchilari ustida kuzatuvlar olib bordik, suhbatlar uyushtirdik. Intellektni aniqlovchi metodikalar yordamida o'quvchilar intellektni diagnostika qildik. Tashhislash shuni ko'rsatdiki, intellektning yuqori rivoji yoki passivligi aynan o'quvchilarning o'z faoliyatlarini, atrofda bo'layotgan voqeya-hodisalarni o'z yoshiga xos tushunishlari muhim ahamiyat kasb etar ekan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonini anglash, tushunish o'quvchilar o'zlashtirishini ta'minlabgina qolmay, balki intellek rivojini ta'minlaydi.

Intellek rivojida tushunchalarning o'rni muhim ekan, bunda quyidagi tavsiyalarga amal qilish yaxshi natijalarga olib keladi deyish mumkin:

- Oila muhitida moddiy va ma'naviy shart – sharoitlar yaratish lozim;
- Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnika vositalar bilan darslarni tashkil etish ta'lim oluvchilar intellektni rivojlantiradi:

- Turli xil to'garak, klublar faoliyat ko'rsatishi va bolalarning ularda qatnashish imkoniyatini yaratish:

- Shaxslararo o'zaro muloqot o'rnatishning o'zluksizligi va oilada iliq psixologik muhitning hukm surishini ta'minlash:

- Turli televizion viktorinalar, baxslar, tortishuvlar, zukkolik, ijodkorlik tezkorlik bo'yicha musobaqalar uyushtirish va ularda qatnashish imkoniyatini yaratish:

- Ortiqcha informatsiya, xabarlar ko'lamini kamaytirish (video, aftomat o'yinlar, komp'yutr o'yinlar) zararli odatlar bilan shug'ullanishni oldini olish (ichish, chekish, narkotik moddalar):

- Ta'lim muassasalarida ta'lim - tarbiya tizimini kuchaytirish ayniqsa o'quv faoliyati jarayonida tafakko'r mustaqilligini faollashtirish va mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish.

Ota-onalar uchun maslahatlar:

- Farzandingizga to'liq ishonning, uning qiziqishlari va biror narsa bilan shug'ullanish istagini amalga oshirishni o'rganing, bergan savollariga to'liq va tushunarli javoblar bering;

- Farzandingizga ko'rsatma berish o'rniga, ko'proq kuzating, bola biror bir mashg'ulotga berilib ketgan bo'lsa, uni boshqa narsaga chalg'itmang u biror narsani o'zi mustaqil bajarayotganligini maqtang, undagi tashabbuskorlikni so'ndirib qo'ymang;

- O'z oldiga qo'ygan maqsadini anglatib, maqsad xaqida tushunchalar bering, tanlagan maqsadining ahamiyatini tushuntiring;

- Farzandingizga istagan mashg'uloti bilan shug'ullanishi uchun kerakli jihozlarni o'zi tanlashga, mashg'ulotlar vaqti uning xoxishi bo'yicha: uzoq, qisqa

bo'lishiga, istagan paytda mashg'ulot bilan shug'ullanishiga ijozat bering, mashg'ulotlarning ahamiyatini tushuntiring;

- Farzandingiz o'zi uchun kashfiyotlar qilishga, narsalarning mohiyatini o'rganishiga sharoit yarating.

Inson aqliy taraqqiyoti ko'p jihatdan inson psixikasining taraqqiyotiga bog'liq. Inson sezgilarining normal taraqqiyoti, idrok etishning aniq va terangligi, diqqatni ko'lam, hajmi va barqarorligi, tafakkurning sermahsul, ijodkorligi va mustaqilligi hamda boshqa jarayonlarning shunday taraqqiyoti intellekt rivojida juda muhim ekan. Shu bilan ta'lim maskanlaridagi zamonaviy texnik vositalarning mavjudligi, ularni o'quvchilar tomonidan qo'llanilishi, turli to'garak va kulublarga qatnash imkoniyatining borligi, oiladagi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning yo'lga qo'yilganligi, o'zoro munosabatlarga kirishish uzviyligini taminlash, turli tadbir va tanlovlarda o'quvchilarni ishtirokini taminlash, ayrim narsa va xodisalarga nisbatan qiziqishining ustunligi kabilar intellekt taraqqiyotining muhim jihati ekanligiga amin bo'ldik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent. 2004 y.
2. G'oziyev E.F. Intellekt psixologiyasi. O'quv qo'llanma Toshkent-2002
3. Psixologiya fani XXI asrda. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: 2002.
4. Qodirova, M. (2021). 6-7 YOSHLI BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISH. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2975>
5. Qodirova, M., & Aglamova, S. (2021). 6-7 YOSHLI BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISH.
6. Aglamova, S., & Qodirova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish.
7. Qodirova, M. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLALARDA KOGNITIV JARAYONLARNING RIVOJLANISHI BORASIDAGI TADQIQOTLAR VA TAVSIYALAR.
8. Qodirova, M., & Aglamova, S. (2020). BOLALARDA MADANIY-GIGIYENIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH.
9. Qodirova, M. (2021). МАШГУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ.
10. Qodirova, M. Do'ngboyeva, E., & (2021). TALABALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK OMILLARNING O'RNI.
11. Qodirova, M., & Aglamova, S. (2021). BUYUK ALLOMALARIMIZ AYOLLAR HAQIDA.
12. Qodirova, M., & Kamolova, S. (2021). ВЛИЯНИЕ РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА ПСИХОЛОГИЮ ЧЕЛОВЕКА.

- 13.Qodirova, M. Qarshiboyeva, D., & (2021). КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ. Изд. «Интернаука».
- 14.Qodirova, M. (2020). ПРОБЛЕМА САМОСОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ. ООО «Логика+».
- 15.Qodirova, M., & Aglamova, S. (2021). BOLALARDA MADANIY-GIGIENIK KO'NIKMALARINI TARBİYALASH SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA. Ilm-ma'rifat Markazi.
- 16.Qodirova, M. (2021). МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ.
- 17.Qodirova, M. (2021). OILAVIY MUNOSABATLAR VA ULARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI.
- 18.Qodirova, M. (2020). РОЛЬ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ПОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ. ООО «Логика+».
- 19.Qodirova, M. (2021). 6-7 YOSHI BOLALAR IDROKINI O'YIN TECHNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.
- 20.Qodirova, M. (2021). O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI .*Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://primedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4021>
- 21.Qodirova, M. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH.*Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://fl.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4025>